

TALABALARDA IJODIY MUNOSABATLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

D.R. Sodiqova¹

¹ Jizzax davlat pedagogika universiteti, Pedagogika kafedrası, p.f.f.d. (PhD), v.b. dotsent
sodikova.d7984@gmail.com

DOI: 10.61587/mmit.tiue.uz.v1i1.243

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini (kreativ va muloqotga asoslangan fikrlashni) rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, psixologik mexanizmlari va samarali usullari tadqiq etilgan. Zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning nafaqat mustaqil fikrlashi, balki jamoaviy ijodiy jarayonlarda faol ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *ijodiy munosabatlar tafakkuri, kreativlik, divergent fikrlash, pedagogik texnologiyalar, oliy ta'lim, interaktiv metodlar.*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING CREATIVE RELATIONAL THINKING IN STUDENTS

D.R. Sodikova¹

¹ Jizzakh State Pedagogical University, Department of Pedagogy, Acting Associate Professor, PhD in
Pedagogical Sciences
sodikova.d7984@gmail.com

Abstract. This article examines the pedagogical conditions, psychological mechanisms and effective methods for developing creative relational thinking (creative and communicative thinking) in students studying in the higher education system. In a modern educational environment, the issues of forming students' skills not only for independent thinking, but also for active participation in collective creative processes are analyzed.

Keywords: *creative relational thinking, creativity, divergent thinking, pedagogical technologies, higher education, interactive methods.*

Kirish

Global iqtisodiyot va axborot texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi oliy ta'lim tizimi oldiga nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirgan, balki nostandart vaziyatlarda tezkor va original qarorlar qabul qila oladigan mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo'yimoqda. Bugungi kunda mutaxassisning kasbiy layoqati uning jamoadagi ijodiy muhitni shakllantira olishi, hamkorlikda yangi g'oyalarni yarata olishi va ijodiy munosabatlar o'rnatish qobiliyati bilan belgilanadi.

Ijodiy munosabatlar tafakkuri — bu shaxsning jamoaviy ijodiy faoliyatda, muammoli vaziyatlarni hal etishda va shaxslararo muloqotda kreativ yondashuvlarni qo'llash qobiliyatidir. Ijodiy munosabatlar tafakkuri — bu voqea va hodisalarga odatiy qarashlardan tashqari yondashish, turli fikrlarni tahlil qilish, yangilik yaratishga intilish hamda mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatidir. Bu jarayonda talaba o'z bilimlari, tajribasi va tasavvuridan samarali foydalanadi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ushbu tafakkur turini shakllantirish, ularning kelajakda raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishlarida muhim poydevor hisoblanadi. Mazkur maqolada talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini tizimli rivojlantirishning metodologik asosi va amaliy jihatlari yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ijodiy tafakkur muammosi falsafa, psixologiya va pedagogika fanlari kesishmasida o'rganilgan ilmiy yo'nalishlardan biridir. G. Uollas ijodiy jarayonning tayyorgarlik, inkubatsiya, ilhom va tekshirish bosqichlarini ajratib ko'rsatgan. J. Gilford ijodkorlikni divergent tafakkur bilan bog'lab, uning asosiy ko'rsatkichlari sifatida originallik, moslashuvchanlik va ravonlikni e'tirof etgan. Ijodiy tafakkur va kreativlik muammosi jahon va respublika pedagogik-psixologik fanlarida keng tadqiq etilgan. Psixolog olimlardan J. Gilford divergent fikrlash konsepsiyasini ilgari surgan bo'lsa, E. P. Torrens kreativlikni muammolarni payqash, gipotezalar tuzish va ularni tekshirish jarayoni sifatida baholagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan V. A. Slastenin, ya. A. Ponomaryovlar ijodiy pedagogika va shaxs faolligi masalalarini o'rganganlar. O'zbekistonlik pedagog va psixolog olimlardan R. H. Jo'rayev, B. R. Qodirov, M. G. Davletshin va Sh. S. Sharipovlar o'z tadqiqotlarida texnik ijodkorlik, talabalar yoshidagi intellektual salohiyat hamda ta'limda ijodiy muhit yaratishning milliy va hududiy xususiyatlarini tahlil qilganlar. Biroq, aynan "ijodiy munosabatlar tafakkuri", ya'ni muloqot va hamkorlik kontekstidagi kreativ fikrlashni rivojlantirish masalasi alohida tizimli tadqiqotni talab etadi. Biroq, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat tadqiqotlarda kreativlik va ijodiy tafakkur shaxsning individual xossasi sifatida ko'rilgan. Jamoaviy intellektual faoliyat va kommunikatsiya jarayonida namoyon bo'ladigan, shaxslararo munosabatlarni ijodiy transformatsiya qilishga qaratilgan ijodiy munosabatlar tafakkuri tuzilmasi, mezonlari va uni oliy ta'limda rivojlantirishning pedagogik-psixologik tizimi yaxlit tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha yoritilmagan.

Pedagogika va psixologiya fanlarida tafakkur insonning bilish faoliyatining oliy shakli sifatida e'tirof etiladi. Tafakkur orqali inson voqelikni bevosita emas, balki umumlashtirilgan va bilvosita tarzda aks ettiradi.

Psixologiya lug'atlarida tafakkur inson ongining voqelikni umumlashtirilgan va vositali tarzda aks ettiruvchi jarayoni sifatida ta'riflanadi. Tafakkur insonga narsa va hodisalar o'rtasidagi qonuniyatlar, sababiy bog'lanishlar hamda munosabatlarni anglash imkonini beradi.

S. L. Rubinshteynning ta'kidlashicha, «tafakkur — bu voqelikning yangi xususiyatlari va munosabatlarini ochishga qaratilgan analitik-sintetik faoliyatdir». Olim tafakkurning asosiy vazifasi insonga yangi bilimlarni egallash imkonini berishdan iboratligini qayd etadi. A. N. Leontev fikricha, tafakkur inson faoliyatining tarkibiy qismi bo'lib, u tashqi faoliyatning ichki aqliy harakatlarga aylanishi natijasida shakllanadi. Bu yondashuv tafakkurning ijtimoiy tabiatini ochib beradi. L. S. V'gotskiy tafakkurni nutq bilan uzviy bog'liq bo'lgan ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida baholaydi. Uning fikriga ko'ra, inson tafakkuri ijtimoiy muhit ta'sirida rivojlanadi va ta'lim mazkur jarayonning muhim omili hisoblanadi.

O'zbekistonlik psixolog olim E. G. G'oziev tafakkurni insonning borliqni umumlashtirgan holda va bilvosita aks ettirishi, muammoli vaziyatlarni hal etishiga xizmat qiluvchi aqliy jarayon sifatida ta'riflaydi.

Ijod tushunchasi ham pedagogika, psixologiya va falsafa fanlarining muhim kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Ijod insonning yangi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarni yaratish faoliyatini anglatadi.

Falsafiy ensiklopediyalarda ijod insonning yangilik yaratishga qaratilgan faoliyati bo'lib, uning natijasida avval mavjud bo'lmagan mahsulot, g'oya yoki usul vujudga kelishi qayd etiladi.

J. Gilford ijodni divergent tafakkur bilan bog'lab, uning asosiy ko'rsatkichlari sifatida fikrning originalligi, moslashuvchanligi, ravonligi va mukammalligini ajratib ko'rsatadi. E. Torrens ijodkorlikni muammolarni sezish, ularni tahlil qilish, gipotezalarni ilgari surish va tekshirish hamda yangi natijalarga erishish qobiliyati sifatida izohlaydi. R. Sternberg ijodni

yangi va qimmatli g'oyalarni yaratish qobiliyati deb baholaydi. Uning fikricha, ijodkorlik bilim, intellekt, shaxsiy sifatlar va muhit ta'siri ostida shakllanadi. Ken Robinson ta'kidlaganidek, «ijodkorlik — bu tasavvur natijasida yuzaga kelgan original g'oyalarning amaliy qiymat kasb etishidir». Bu ta'rif ijodning faqat yangilik emas, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lishi lozimligini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflar tahlili shuni ko'rsatadiki, tafakkur insonning bilish jarayonini, ijod esa mazkur jarayonning eng yuqori va samarali ko'rinishini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini rivojlantirish ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish va kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

Talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini rivojlantirish usullari

Talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurni rivojlantirishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. Muammoli ta'limni tashkil etish. Talabalarga tayyor javoblarni bermasdan, muammoli vaziyatlar yaratish. Mustaqil izlanish va yechim topishga undash.
2. Loyiha faoliyatidan foydalanish. Amaliy loyihalar ustida ishlash orqali talabalarning tashabbuskorligi va ijodkorligini rivojlantirish. Jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish.
3. Munozara va bahs-munozaralarni tashkil etish. Turli nuqtayi nazarlarni himoya qilish imkoniyatini yaratish. Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish.
4. Interfaol metodlarni qo'llash. "Aqliy hujum", "Klaster", "Sinkveyn", "Debat" kabi metodlardan foydalanish. Talabalarning faol ishtirokini ta'minlash.
5. Erkin va ijodiy muhit yaratish. Talabalarning yangi g'oyalarni qo'llab-quvvatlash. Xatolardan qo'rqqanidan fikr bildirishga rag'batlantirish.

Ta'lim jarayonida ushbu usullardan foydalanish asosida biz talabalarning ijodiy munosabatlar tafakkurini rivojlantirishda pedagogik muhitning ahamiyati yuqori ekanligi aniqladik. Xususan:

- erkin fikr almashish imkoniyatining mavjudligi;
 - o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik;
 - innovatsion metodlardan foydalanish;
 - mustaqil ta'limga yo'naltirilgan faoliyatning tashkil etilishi;
- ijodiy fikrlash ko'rsatkichlarining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, kreativ ta'lim muhitida tahsil olgan talabalar muammolarni hal qilish, tahliliy fikrlash va innovatsion g'oyalar yaratishda yuqori natijalarni namoyon etishi kuzatildi.

Natijalar va amaliy tavsiyalar

Talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini rivojlantirish — bu shunchaki intellektual mashq emas, balki jamiyat uchun innovatsion fikrlaydigan, ijtimoiy mas'uliyatli va kommunikativ layoqatli shaxsni shakllantirishning asosiy omilidir.

Olingan natijalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar taklif etiladi:

- Oliy ta'lim o'quv rejalariga talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini o'stirishga qaratilgan maxsus tanlov kurslarini kiritish;
- Talabalarning mustaqil ta'lim soatlarini faqat konspekt yozishga emas, balki real muammolarga asoslangan loyihalarni (Project-based learning) tayyorlashga yo'naltirish;
- Professor-o'qituvchilarning kreativ pedagogik mahoratini oshirish bo'yicha doimiy seminarlar tashkil etish.

Xulosa

Ijodiy munosabatlar tafakkuri shakllangan mutaxassis kelajakda har qanday murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ham o'zining munosib o'rnini topa oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Guilford, J. P. (1967). The Nature of Human Intelligence. McGraw-Hill.
2. Torrance, E. P. (1974). Torrance Tests of Creative Thinking. Scholastic Testing Service.
3. Jo'rayev r.H. va boshqalar. (2012). Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent.
4. Sharipov Sh.S. (2009). Talabalar ijodiy tafakkurini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari. "Fan" nashriyoti.
5. Ponomarev Ya. A. (1976). Psixologiya tvorchestva. Nauka.
6. Sodiqova D.R. Talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini shakllantirishning nazariy asoslari.// "Ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayoni va o'quv sifatini takomillashtirish muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Jizzax - 2022-yil
7. Sodiqova D.R. Tadqiqot turlari asosida talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini rivojlantirishning ahamiyati.// International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 7, Issue 02, February (2024)